ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВУЗОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И РЫНОЧНОЙ КОНКУРЕНЦИИ	1020
Ходжаева Наргизахон Анатолиевна	
FUNDRAISING AS A STRATEGIC TOOL IN MUSEUM MANAGEMENT	1028
Aziza Ibroximova	
KORXONALARDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	1035
Boboraxmatova Shohsanam Ibdullo qizi	
MOLIYAVIY HISOBOT TIZIMINI XALQARO STANDARTLARGA O'TKAZISHNING O'ZBEKISTONDAGI DINAMIKASI VA NATIJALARI (OLMALIQ KMK MISOLIDA)	1043
A.J.Tuychiyev, M.V Abdunabiyeva	
TARMOQLANGAN AVTOMOBIL YO'LLARI QURISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: FARG'ONA VODIYSI (FARG'ONA VILOYATI VA QO'QON HUDUDI) MISOLIDA RAQAMLI LOYIHALASH, OPTIMALLASHTIRISH VA INTELLEKTUAL BOSHQARUV	1051
Yakubov Maqsadxon Sultaniyazovich, Norinov Muhammadyunus Usibjonovich, Zikrayev Akmaljon Alimovich	
O'ZBEKISTONDA KORPORATIV INNOVATSIYA TIZIMINI ISH SAMARADORLIGINI BAHOLOVCHI (KPI) AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1057
Rafikova Kamila Baxtiyorovna	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING MOLİYAVIY BOZOR RIVOJIGA TA'SIRI	1063
Abdulazizov Javohir Abduvali o'g'li	
OILAVIY TADBIRKORLIKNI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLİYALASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	1070
Davlyatov Qahramon Abdumavlyanovich	
AMORTIZATSİYALANADIGAN AKTIVLAR HISOBINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	1077
Aminboyev Jaloliddin Otabek o'g'li	
BANKLARDA RISK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH	1083
Karimov Shoxrux Boydulla ugli	
DIGITALIZATION, RESEARCH CAPACITY AND HIGHER EDUCATION DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: AN ARDL-ECM ANALYSIS (2000-2024)	1087
Ismailova Nilufar	
TURIZMDA TALAB VA TAKLIFNI BAHOLASH USULLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1094
Suyunov Alijon Jumaboy o'g'li	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ДОХОДАМИ И РАСХОДАМИ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ	1099
Аймухаммедова Амина Какажановна	
"O'ZMILLIYBANK" AJDA MIJOZLARINING KREDITGA LAYOQATLILIGI DARAJASI HOLATI TAHLILI	1105
Jumaniyazov Quvanchbek Amatjonovich	



SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1110
Qodirov Bekzod Xomidjonovich	
FARMATSEVTIKA SANOATINING ASOSIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI IQTISODIY-STATISTIK USULLARI ORQALI TAHLILI	1115
O'taganova Umida Egamberdi qizi	
MAMLAKATIMIZDA XOTIN – QIZLAR O'RTASIDA MAHALLIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	1123
Rafiyeva Madina Xusinovna	
YASHIL IQTISODIYOTDA DEPOZIT TIZIMINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BOSHQARISH	1128
Norqobilova Feruza Abduhomidovna, Odilov Jahongir Nozimjonovich	
OPTIMIZING HUMAN CAPITAL: THE IMPACT OF SCHOOL MANAGEMENT ON ORGANIZATIONAL CULTURE IN VOCATIONAL EDUCATION.....	1132
Karimova Dilfuza Xatamjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSİYALARINING INNOVATSION MAZMUNI RIVOJLANISHINING DOLZARB YO'NALISHLARI	1138
Batirova Raxima Abdujabbarovna, Raximjonov Ulug'bek Boxodir o'g'li	
IQTISODIY TIZIMLARNI MAKRO VA MIKROIQTISODIY DARAJADA PROGNOZLASH: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR VA MODELLASHTIRISH USULLARI	1142
Alimov Fazliddin Xalimovich	
ISLOMIY MOLIYA INSTITUTLARIDA FOIZSIZ MOLIYALASHTIRISH TAMOIYLLARINING IQTISODIY MOHIYATI.....	1147
Pulatova Adolat Djaxangirshyevna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVASION FAOLIYATNI SAMARALI BOSHQARISH JARAYONLARI	1152
Fayzieva Dilafruz Shuhratovna	
MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTASI (CENTRAL BANK DIGITAL CURRENCY): NAZARIY ASOSLAR VA XALQARO TA'RIFLARNING QIYOSIY TAHLILI	1156
Tashqo'ziyev Suxrob Abdurazzak o'g'li	



MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTASI (CENTRAL BANK DIGITAL CURRENCY): NAZARIY ASOSLAR VA XALQARO TA'RIFLARNING QIYOSIY TAHLILI

Tashqo'ziyev Suxrob Abdurazzak o'g'li

Guliston davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

suxrobabdurazzaqovich@gmail.com

ORCID: 0009-0003-8397-9857

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy moliya tizimining transformatsiyasida hal qiluvchi rol o'ynayotgan Markaziy bank raqamli valyutasi (Central Bank Digital Currency — CBDC) konsepsiyasining nazariy asoslari hamda xalqaro ta'riflari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi CBDC ning mohiyatini ochib berish, uning an'anaviy pul shakllari, kriptovalyutalar va elektron pullardan tub farqlarini aniqlash, shuningdek, yetakchi xalqaro moliya institutlari tomonidan qo'llaniladigan ta'riflarni qiyosiy tahlil qilish orqali yagona konseptual yondashuvni shakllantirishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy va mantiqiy tahlil metodlaridan foydalanilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, CBDC nafaqat qonuniy to'lov vositasi maqomiga ega bo'lgan raqamli milliy valyuta, balki moliyaviy tizim arxitekturasini hamda monetar siyosatni amalga oshirish mexanizmlarini tubdan o'zgartirish salohiyatiga ega bo'lgan institutsional innovatsiya hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan berilgan ta'riflar o'rtasidagi asosiy farqlar CBDC ning dizayn variantlari, maqsadlari va potensial xavflariga qaratilgan turli yondashuvlarda namoyon bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, CBDC ning yagona va universal ta'rifini shakllantirish global standartlarni ishlab chiqish hamda muvofiqlashtirilgan siyosatni amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Markaziy bank raqamli valyutasi, CBDC, raqamli valyuta, kriptovalyuta, monetar siyosat, moliyaviy barqarorlik, BIS, IMF.

Abstract. This article examines the theoretical foundations and international definitions of Central Bank Digital Currency (CBDC), a concept that plays a pivotal role in the transformation of the modern financial system. The study aims to clarify the essence of CBDC, identify its fundamental differences from traditional forms of money, cryptocurrencies, and electronic money, and develop a unified conceptual approach through a comparative analysis of definitions adopted by leading international financial institutions. The research employs systematic, comparative, and logical analysis methods. The findings indicate that CBDC is not merely a digital form of national legal tender but also an institutional innovation with the potential to fundamentally reshape the architecture of the financial system and the mechanisms of monetary policy implementation. Variations in the definitions proposed by international institutions primarily reflect differing emphases on CBDC design features, policy objectives, and potential risks. In conclusion, the formulation of a single universal definition of CBDC is essential for the development of global standards and the implementation of coordinated policy frameworks.

Key words: Central Bank Digital Currency, CBDC, digital currency, cryptocurrency, monetary policy, financial stability, BIS, IMF.

Аннотация. В статье анализируются теоретические основы и международные определения концепции цифровой валюты центрального банка (Central Bank Digital Currency — CBDC), играющей ключевую роль в трансформации современной финансовой системы. Цель исследования заключается в раскрытии сущности CBDC, выявлении её принципиальных отличий от традиционных форм денег, криптовалют и электронных денежных средств, а также в формировании единого концептуального подхода на основе сравнительного анализа определений, используемых ведущими международными финансовыми институтами. В работе применены методы системного, сравнительного и логического анализа. Полученные результаты свидетельствуют о том, что CBDC представляет собой не только цифровое национальное законное платёжное средство, но и институциональную инновацию, способную коренным образом изменить архитектуру финансовой системы и механизмы реализации денежно-кредитной политики. Различия в подходах международных организаций проявляются в акцентах на дизайн-параметры CBDC, его целевые установки и потенциальные риски. В заключение подчёркивается, что формирование единого универсального определения CBDC является необходимым условием для разработки глобальных стандартов и реализации согласованной политики.

Ключевые слова: цифровая валюта центрального банка, CBDC, цифровая валюта, криптовалюта, денежно-кредитная политика, финансовая стабильность, BIS, МБФ.



KIRISH

So'nggi o'n yillikda moliya sohasida raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi, kriptovalyuta aktivlarining paydo bo'lishi hamda naqd puldan foydalanishning global miqyosda kamayishi markaziy banklarning raqamli valyuta chiqarish g'oyasiga bo'lgan qiziqishini keskin oshirdi. Markaziy bank raqamli valyutasi (CBDC) zamonaviy iqtisodiyotda yangilik sifatida nafaqat texnologik, balki institutsional o'zgarishlarni ham anglatadi. Biroq yangi tushuncha sifatida CBDC ning aniq nazariy chegaralari va ta'rifi, shuningdek, uning moliyaviy tizimdagi o'rni borasida bir qarashda tushunish qiyin bo'lgan turli yondashuvlar mavjud. Shu sababli ushbu mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlarda turlicha ta'riflarning qo'llanilishi tadqiqotchilar va siyosatchilar o'rtasida tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Maqolaning maqsadi CBDC konsepsiyasini tizimli o'rganish, uning asosiy xususiyatlarini aniqlash hamda xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan qo'llanilayotgan ta'riflarning o'ziga xos jihatlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Ushbu o'rganish global moliyaviy tizimda standartlashtirish va muvofiqlashtirilgan siyosatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yagona konseptual asosni yaratishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHAHRI

Zamonaviy moliya tizimida raqamli transformatsiya jarayonlarining tezlashuvi, blokcheyn kabi tarqatilgan ledger texnologiyalarining (DLT) rivojlanishi hamda kriptovalyuta aktivlarining (masalan, Bitcoin, Ethereum) paydo bo'lishi an'anaviy pul muomalasi va monetar siyosat mexanizmlariga bo'lgan qarashlarni tubdan o'zgartirmoqda. Shunga qaramay, kriptovalyutalarning o'ziga xos xususiyatlari — erkin fluktuatsiya, davlat kafolatining mavjud emasligi va markaziy nazoratning yo'qligi — ularni barqaror milliy valyuta hamda moliyaviy tizim uchun asos sifatida qo'llash imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda.

Aynan shu paradoksal vaziyat, ya'ni raqamli iqtisodiyot ehtiyojlarini qondirish va texnologik innovatsiyalardan foydalanish zarurati bilan moliyaviy barqarorlik, davlat suvereniteti va ishonchlilikni saqlash talabi o'rtasidagi qarama-qarshilik Markaziy bank raqamli valyutasi (CBDC) konsepsiyasini dolzarb va strategik ahamiyatga ega bo'lgan global muhokama markaziga aylantirdi.

CBDC nafaqat naqd pulning raqamli shakldagi muqobili, balki davlat tomonidan kafolatlangan, qonuniy to'lov vositasi maqomiga ega bo'lgan va markaziy bank tomonidan chiqariladigan yangi turdagi raqamli aktiv hisoblanadi. U moliyaviy inklyuzivlikni oshirish, to'lov tizimlarining tezligi va xavfsizligini yaxshilash, monetar siyosatni aniqroq va samaraliroq amalga oshirish, shuningdek, xalqaro to'lovlarni soddalashtirish kabi keng imkoniyatlarni ochib beradi. Biroq bir vaqtning o'zida CBDC bank depozitlaridan mablag'lar oqimi, moliyaviy barqarorlikka tahdid, ma'lumotlar maxfiyligi va kiberxavfsizlik bilan bog'liq yangi risklarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

Hozirgi vaqtda CBDC mavzusi nafaqat ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida, balki amaliy siyosat va tajriba loyihalari darajasida ham faol rivojlanmoqda. Xitoy (digital yuan / e-CNY), Bahama orollari (Sand Dollar), Nigeriya (e-Naira) hamda Yevropa Ittifoqi (digital euro loyihasi) kabi bir qator mamlakatlar va iqtisodiy birliklar CBDC ni joriy etish yoki pilot sinov bosqichlarini amalga oshirmoqda. Shu bilan birga, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va Bank xalqaro hisob-kitoblar instituti (BIS) kabi yetakchi xalqaro moliya tashkilotlari ushbu yo'nalishda keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, standartlar va tavsiyalar ishlab chiqmoqda.

Biroq "Markaziy bank raqamli valyutasi" tushunchasining o'zi hali ham muayyan darajada noaniqlikni saqlab qolmoqda. Turli xalqaro tashkilotlar (BIS, IMF, FATF) va olimlar o'z mandatlari hamda tadqiqot e'tibor doiralariga muvofiq ravishda CBDC ning mohiyati, dizayni va maqsadlariga turlicha ta'rif va talqinlar bermoqdalar. Bu holat bir tomondan, konsepsiyaning ko'p qirrali ekanligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, tushunmovchiliklar, muvofiqlashtirilmagan siyosiy qarorlar va globallashtirish sharoitida o'zaro ishlash muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.

Shu sababli CBDC ning nazariy asoslarini, uning an'anaviy pul, elektron pul va kriptovalyutalardan tub farqlarini, shuningdek, yetakchi xalqaro moliya institutlari tomonidan qo'llaniladigan ta'riflarni qiyosiy tahlil qilish orqali ushbu konsepsiyaga yagona va izchil yondashuvni shakllantirish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Mazkur tahlillar globallashtirish iqtisodiyot sharoitida zarur bo'lgan standartlar va uyg'un siyosatlarni ishlab chiqishning muhim bosqichi bo'lib xizmat qiladi. Maqolada aynan shu vazifa qo'yilgan bo'lib, u nafaqat nazariy bilimlarni boyitishga, balki amaliy siyosat va xalqaro hamkorlik uchun mustahkam asos yaratishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda CBDC ga oid ma'lumotlar yetakchi xalqaro moliya tashkilotlari (BIS, IMF, FATF) hisobotlari, ilmiy maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlardan olingan. Tadqiqotda tizimli, qiyosiy va mantiqiy tahlil usullari qo'llanilib, xalqaro ta'riflar mazmuni institutsional mandatlar kesimida solishtirildi hamda ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlandi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida olib borilgan tizimli, qiyosiy va mantiqiy tahlillar natijasida Markaziy bank raqamli valyutasi (CBDC) ning mohiyati, institutsional xususiyatlari hamda boshqa raqamli aktivlardan farqlanuvchi jihatlari aniqlandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, CBDC an'anaviy naqd yoki naqdsiz pulning oddiy raqamli shakli emas, balki monetar tizimning tub institutsional transformatsiyasini ifodalovchi innovatsion moliyaviy instrument hisoblanadi. U pul-kredit siyosati, to'lov infratuzilmasi va moliyaviy barqarorlik mexanizmlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan strategik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlillar CBDC ning asosiy konseptual mohiyati uchta fundamental xususiyat bilan belgilanishini ko'rsatdi. Birinchidan, CBDC emissiyasi faqat markaziy bank yoki milliy monetar boshqarma tomonidan amalga oshiriladi va u davlat suvereniteti bilan to'liq kafolatlanadi. Mazkur jihat CBDC ni xususiy subyektlar tomonidan chiqariladigan kriptovalyutalardan tubdan farqlaydi. Markaziy bank balansida aks ettirilgan oltin-valyuta zaxiralari, davlat qimmatli qog'ozlari va boshqa yuqori likvid aktivlar CBDC ning qiymat barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, CBDC milliy valyutaning to'laqonli raqamli ekvivalenti sifatida qonuniy to'lov vositasi maqomiga ega bo'lishi zarurligi asoslandi. Bu holat uning iqtisodiyotda qiymat o'lchovi, ayirboshlash vositasi hamda jamg'arma vositasi funksiyalarini bajarishini ta'minlaydi. Natijada CBDC xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholi o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarda, tovar va xizmatlar uchun hisob-kitoblarda hamda moliyaviy rejalashtirish jarayonlarida an'anaviy pul shakllari bilan teng huquqli instrument sifatida ishtirok etadi.

Uchinchidan, CBDC ning to'liq raqamli tabiatga egaligi uning jismoniy banknot va tangalarga ehtiyojsiz muomalada bo'lishini ta'minlaydi. Eng muhim jihati shundaki, u aholi va biznes subyektlariga markaziy bank majburiyatlariga bevosita kirish imkonini beradi. Bu esa tijorat banklari orqali amalga oshiriladigan vositachilikka bo'lgan mutlaq bog'liqlikni qisqartirib, moliyaviy inklyuziya darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tashkilotlarning CBDC ga oid yondashuvlari bo'yicha o'tkazilgan qiyosiy tahlil ularning institutsional mandatlari va vazifalariga mos ravishda farqlanishini ko'rsatdi. Bank xalqaro hisob-kitoblar instituti CBDC ga texnologik neytrallik va to'lov tizimlarining innovatsion rivoji nuqtayi nazaridan yondashib, uni jamoatchilikka ochiq markaziy bank majburiyati sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv turli texnologik arxitekturalardan foydalanish imkonini berishi bilan ajralib turadi. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi esa CBDC ni markaziy bank balansidagi raqamli majburiyat sifatida ko'rib, uning makroiqtisodiy barqarorlik, moliyaviy risklar va xalqaro to'lov tizimlariga ta'siriga alohida e'tibor qaratadi. Moliyaviy Harakat Vazifalar Guruhi esa CBDC ni aniq huquqiy maqomga ega bo'lgan qonuniy to'lov vositasi sifatida ta'riflab, uni virtual valyutalardan qat'iy ajratadi va AML/CFT talablariga muvofiqligini ta'minlashni asosiy ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari CBDC ning boshqa raqamli aktivlardan tub farqlanishini ko'rsatdi. Kriptovalyutalar va stablecoinlardan farqli ravishda, CBDC markazlashtirilgan emissiya mexanizmiga ega bo'lib, davlat tomonidan to'liq kafolatlanadi va yuqori darajadagi narx barqarorligini ta'minlaydi. U spekulativ aktiv emas, balki monetar siyosatning ajralmas elementi sifatida iqtisodiy muomalaga xizmat qiladi. Shu jihatdan, CBDC raqamli iqtisodiyot sharoitida pul tizimini modernizatsiya qilish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va to'lov infratuzilmasining samaradorligini oshirishda muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

1-jadval. CBDC, kriptovalyutalar, bank elektron pullari va stabilcoinlarning asosiy xususiyatlari bo'yicha qiyosiy tahlili

Xususiyat	CBDC	Kriptovalyuta (Bitcoin)	Bank Elektron Pul	Stabilcoin
Emissiya subyekti	Markaziy bank	Xususiy shaxslar /majmua	Tijorat banklari	Xususiy kompaniyalar
Qonuniy to'lov vositasi	Ha	Yo'q	Ha	Yo'q
Davlat kafolati	To'liq	Yo'q	Cheklangan (depozit sug'urtasi)	Aktivlar bilan qoplanmagan
Qiymat barqarorligi	Milliy valyuta bilan bog'liq	Yuqori o'zgaruvchan	Bank depoziti sifatida	Asosiy aktivga bog'liq
Nazorat darajasi	Markazlashtirilgan	Tarqatilgan	Markazlashtirilgan	Markazlashtirilgan

Tadqiqot natijalari CBDC ning iqtisodiy tizimga integratsiyasi pul-kredit siyosati va moliyaviy barqarorlik mexanizmlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqladi. Xususan, CBDC markaziy banklarga monetar siyosat instrumentlaridan yanada aniq va bevosita foydalanish imkonini yaratadi, bu esa pul taklifini boshqarish samaradorligini oshiradi. CBDC orqali salbiy foiz stavkalarini texnik jihatdan amalga oshirish imkoniyati kengayadi, chunki naqd puldan farqli ravishda raqamli muhitda foiz siyosatini to'liq tatbiq etish mumkin bo'ladi. Shuningdek, CBDC iqtisodiy faoliyatni real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini berib, makroiqtisodiy tahlil



va prognozlash sifatini yaxshilaydi hamda markaziy bankning tezkor siyosiy qarorlar qabul qilish salohiyatini kuchaytiradi.

Moliyaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan CBDC ning joriy etilishi bank tizimining funksional transformatsiyasiga olib kelishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklaridagi depozitlarning bir qismi CBDC hisobvaraqlariga oqib o'tish xavfi mavjud bo'lib, bu banklarning resurs bazasiga ta'sir ko'rsatishi ehtimolini oshiradi. Shu bilan birga, CBDC moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirib, aholining keng qatlamlari uchun xavfsiz va qulay moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Milliy to'lov tizimining markaziy bank tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan raqamli platforma asosida faoliyat yuritishi to'lovlar uzluksizligi va ishonchlilikini oshirib, tizimli risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan berilgan CBDC ta'riflari bo'yicha amalga oshirilgan tahlil ularning yondashuvlarida bir vaqtning o'zida ham konvergensiya, ham diverzifikatsiya tendensiyalari mavjudligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari barcha yetakchi xalqaro institutlar CBDC ning qonuniy to'lov vositasi maqomiga egaligini, emissiya huquqi faqat markaziy bankka tegishli ekanini hamda milliy valyuta bilan birga bir nisbatda bog'liqligini tan olishini tasdiqladi. Bu jihatlar CBDC ning asosiy institutsional poydevorini shakllantiruvchi umumiy konsensus sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, tashkilotlar o'rtasida muhim institutsional farqlar ham mavjud. Bank xalqaro hisob-kitoblar instituti texnologik neytrallikka va dizayn variantlarining xilma-xilligiga urg'u berib, CBDC ning markazlashtirilgan yoki tarqatilgan texnologik asoslarda joriy etilish imkoniyatlarini ochiq qoldiradi. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi esa asosan makroiqtisodiy oqibatlar, moliyaviy barqarorlik va tizimli risklarga e'tibor qaratib, CBDC ning real iqtisodiy natijalarini baholashni ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi. Moliyaviy Harakat Vazifalar Guruhi esa huquqiy va tartibga solish risklariga alohida urg'u berib, CBDC ning noqonuniy moliyaviy oqimlarga qarshi kurash tizimiga mosligini ta'minlashga intiladi.

O'tkazilgan tahlillar CBDC ga yagona va universal ta'rifni shakllantirish zarurligini asoslab berdi. Bunday yondashuv global standartlarni ishlab chiqish, muvofiqlashtirilgan monetar va tartibga solish siyosatini amalga oshirish, transchegaraviy to'lovlar va tizimlar o'rtasida o'zaro ishlash qobiliyatini ta'minlash hamda ilmiy va amaliy tadqiqotlar uchun umumiy metodologik asos yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yagona konseptual yondashuv CBDC ning turli mamlakatlarda joriy etilishi jarayonida yuzaga keladigan tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari CBDC ning faqat texnologik yangilik emas, balki monetar boshqaruv, moliyaviy barqarorlik va xalqaro moliyaviy arxitektura uchun muhim bo'lgan murakkab institutsional innovatsiya ekanini ko'rsatadi. CBDC ning xalqaro miqyosda turlicha talqin qilinishi institutlarning mandatlarini va ustuvor vazifalari bilan izohlanadi hamda mazkur tahlillar globallashtirilgan iqtisodiyot sharoitida yagona va uyg'un konseptual yondashuvni ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari asosida CBDC ning zamonaviy moliyaviy tizimdagi o'rnini va ahamiyatiga oid bir qator muhim xulosalar shakllantirildi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Markaziy bank raqamli valyutasi oddiy texnologik yangilik emas, balki chuqur institutsional o'zgarishlarni ifodalovchi fundamental moliyaviy innovatsiya hisoblanadi. Uning mohiyati markaziy bank tomonidan chiqarilishi va to'liq kafolatlanishi, milliy valyutaning qonuniy to'lov vositasi sifatidagi raqamli shakli bo'lishi hamda raqamli tabiati orqali aholiga va biznes subyektlariga markaziy bank majburiyatlariga bevosita kirish imkoniyatini ta'minlashi bilan belgilanadi. Ushbu xususiyatlar CBDC ni an'anaviy pul shakllari va boshqa raqamli aktivlardan tubdan farqlovchi asosiy omillar sifatida namoyon qiladi.

Shuningdek, xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan berilgan CBDC ta'riflari ularning institutsional mandatlarini va ustuvor yo'nalishlari bilan bevosita bog'liqligi aniqlandi. Bank xalqaro hisob-kitoblar instituti CBDC ga texnologik neytrallik va to'lov tizimlarining innovatsion rivoji nuqtayi nazaridan yondashib, dizayn va texnologik yechimlarning xilma-xilligini qo'llab-quvvatlaydi. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi esa CBDC ning makroiqtisodiy barqarorlikka, pul-kredit siyosati samaradorligiga va xalqaro moliyaviy tizimga ta'sirini asosiy tahlil obyekti sifatida ko'radi. Moliyaviy Harakat Vazifalar Guruhi esa huquqiy va tartibga solish masalalariga ustuvor ahamiyat berib, CBDC ning moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurash tizimiga mosligini ta'minlashga e'tibor qaratadi. Bu farqlar CBDC ning murakkab va ko'p qirrali tabiatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari CBDC ning an'anaviy naqd pul, bank elektron pullari va kriptovalyutalardan tubdan farq qilishini ko'rsatdi. Davlat tomonidan to'liq kafolatlanishi, qonuniy to'lov vositasi maqomiga egaligi va markazlashtirilgan monetar nazorat ostida bo'lishi uni xususiy raqamli aktivlardan ajratib turadi. Aynan shu jihatlar CBDC ni moliyaviy tizim arxitekturasini qayta shakllantirish, to'lov infratuzilmasini modernizatsiya qilish va pul muomalasining shaffofligini oshirish imkonini beruvchi strategik instrumentga aylantiradi.

Shu bilan birga, tadqiqot hozirgi vaqtda CBDC ga yagona universal ta'rifning mavjud emasligi muvofiqlashtirish muammolarini yuzaga keltirayotganini aniqladi. Turli mamlakatlar va institutlar tomonidan



qo'llanilayotgan turlicha yondashuvlar global standartlarni ishlab chiqish, transchegaraviy to'lov tizimlarida o'zaro ishlash qobiliyatini ta'minlash va xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish jarayonlarini murakkablashtirmoqda. Bu holat CBDC ni joriy etishda umumiy konseptual va metodologik asosga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalari CBDC ning monetar siyosat uchun yangi imkoniyatlar ochishini ham tasdiqladi. Xususan, CBDC markaziy banklarga pul-kredit siyosatini yanada aniq va samarali amalga oshirish, pul oqimlarini bevosita boshqarish hamda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Bu esa siyosiy qarorlarning tezkorligi va aniqligini oshirib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Olingan xulosalar asosida CBDC bo'yicha bir qator nazariy, siyosiy va amaliy takliflar ilgari surildi. Avvalo, ilmiy hamjamiyat va xalqaro tashkilotlar tomonidan CBDC ning yagona, ko'p qirrali va texnologik jihatdan neytral ta'rifini ishlab chiqish zarurligi asoslandi. Ushbu ta'rif CBDC ning asosiy institutsional xususiyatlarini, jumladan emitent, huquqiy maqom va kafolatlanish darajasini qamrab olishi, shuningdek retail va wholesale kabi turli dizayn variantlarini hisobga olishi lozim. Shu bilan birga, CBDC ning to'g'ridan-to'g'ri, gibrid va vositachilik modellari uchun aniq tasnif va mezonlar tizimini ishlab chiqish muhim metodologik vazifa sifatida belgilandi.

Siyosiy va tartibga solish darajasida CBDC bo'yicha global standartlarni ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi. Bu standartlar texnik arxitektura va kiberxavfsizlik, ma'lumotlar maxfiyligi va himoyasi hamda tizimlararo o'zaro ishlash qobiliyatini ta'minlovchi protokollarni qamrab olishi lozim. Mamlakatlar o'rtasida CBDC loyihalari bo'yicha muvofiqlashtirilgan siyosat yondashuvini shakllantirish, tajriba va ma'lumot almashish mexanizmlarini joriy etish umumiy xatolar va tizimli risklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, CBDC ni huquqiy va institutsional jihatdan mustahkamlash uchun milliy qonunchilik bazalarini o'z vaqtida modernizatsiya qilish zarurligi qayd etildi.

Amaliy va texnologik nuqtayi nazardan, CBDC ning turli modellari va texnologik yechimlarini sinovdan o'tkazish maqsadida keng qamrovli pilot loyihalarni amalga oshirish tavsiya etildi. Bunda moliyaviy barqarorlikka tahdidlar, bank tizimidagi depozit oqimlari, ma'lumotlar xavfsizligi va tizimli risklarni qamrab oluvchi samarali xavflarni boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, CBDC ni muvaffaqiyatli joriy etish uchun raqamli infratuzilmani, jumladan aloqa tarmoqlari, xavfsizlik tizimlari va foydalanuvchi interfeyslarini rivojlantirish zarur deb topildi.

Ilmiy-tadqiqot yo'nalishida kelgusida CBDC ning uzoq muddatli makroiqtisodiy ta'siri, bank tizimi transformatsiyasi va xalqaro to'lov tizimlaridagi o'zgarishlarni chuqur o'rganishga alohida e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlandi. CBDC ni iqtisodiyot, huquq, texnologiya va sotsiologiya nuqtayi nazaridan kompleks, ko'p intizomli yondashuv asosida tadqiq etish uning real ta'sirini to'liq baholash imkonini beradi. Bu jarayonda ilmiy-tadqiqot institutlari, markaziy banklar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston kontekstida esa CBDC ni joriy etish bo'yicha bosqichma-bosqich milliy strategiyani ishlab chiqish, mahalliy mutaxassislar tayyorlash va ilmiy salohiyatni rivojlantirish zarurligi asoslandi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarga ega mamlakatlarning CBDC loyihalarini chuqur o'rganish va milliy sharoitlarga moslashtirish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasini tashkil etish orqali CBDC ning ehtimoliy foyda va xavflari haqida ochiq axborot berish muhim vazifa sifatida belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, CBDC zamonaviy moliyaviy tizimning muhim transformatsiya omili bo'lib, uning muvaffaqiyatli joriy etilishi nazariy yondashuvlar bilan amaliy mexanizmlarning uyg'unligini, xalqaro hamkorlikni mustahkamlashni hamda har bir mamlakatning o'ziga xos iqtisodiy va institutsional sharoitlarini hisobga olgan puxta strategik yondashuvni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bordo, M. D., & Levin, A. T. (2017). Central Bank Digital Currency and the Future of Monetary Policy. NBER Working Paper No. 23711.
2. Auer, R., & Böhme, R. (2020). The technology of retail central bank digital currency. BIS Quarterly Review, March, 85–100.
3. Bank for International Settlements (BIS). (2018). Central bank digital currencies. Committee on Payments and Market Infrastructures (CPMI).
4. Bank for International Settlements (BIS). (2020). The rise of central bank digital currency: drivers, approaches and technologies. BIS Innovation Hub.
5. International Monetary Fund (IMF). (2020). Digital Money Across Borders: Macro-Financial Implications. IMF Policy Paper.
6. Financial Action Task Force (FATF). (2021). Updated Guidance for a Risk-Based Approach to Virtual Assets and Virtual Asset Service Providers.
7. Kumhof, M., & Noone, C. (2018). Central bank digital currencies — design principles and balance sheet implications. Bank of England Staff Working Paper No. 725.
8. <https://www.bis.org>
9. <https://www.imf.org>
10. <https://www.fatf-gafi.org>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
